



XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 13-avgust

VII-14-136-5-78-K/25

Zarafshon shahar

Zarafshon shahar mahalliy budjetining 2025-yil II chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-,24-moddalari, Budjet kodeksining 126-moddasi, 2025-yil II chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan shakllangan qo'shimcha manbalardan foydalanish maqsadida xalq deputatlari shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari N.Xolovning mahalliy budjetining II chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan mablag' ajratish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Shahar mahalliy budjetining II chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan ilovaga muvofiq mablag' ajratilsin.
3. Shahar budjetining qo'shimcha manbalaridan mablag' oluvchilarning rahbar va mas'ul xodimlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo'yilsin.
4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o'rinbosari A.Shoxmirzayev va xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi R. Nurnazarov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RAXMANOV
NAZIRBEK
ISRAILOVICH

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2025-yil 13-avgustdagi
VII-14-136-5-78-K/25 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Muassasa nomi	Maqsadi	Daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi (mln som'da)	Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushum (mln so'mda)
1.	Shahar hokimligi	Jamoatchilik fikri asosida "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasiga 30% mablag'ni yo'naltirish uchun	632,0	
		"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi xarajatlariga (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qaroriga asosan)	30,0	
		"Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi xarajatlariga (Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145-son qaroriga asosan)	30,0	
		O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimida Bolalar sog'lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasi xarajatlariga (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi PQ-427-son qaroriga asosan)	10,0	
		Qo'riqlash xizmati xarajatlari uchun	87,0	
		Yoqilg'i (benzin va gaz) sotib olish va xizmat avtomobillarini ta'mirlash xarajatlariga	25,0	
		Wannet va vpn internet xizmati xarajatlariga	34,8	
		Zarafshon shahri mahallalarida faoliyat yuritayotgan "Keksalar maslahati" guruhlarini rahbarlarini rag'batlantirish xarajatlariga	11,3	
		Kanselyariya mollari sotib olish xarajatlariga	20,0	
		Xo'jalik mollari va qurilish mollari sotib olish xarajatlariga	33,2	
		Banner tayyorlash xarajatlariga	20,0	
		Zarafshon shahar hokimligi saytini Axborot texnologiyalarini texnik qo'llab-quvvatlash doirasidagi xarajatlari uchun	21,6	
		Maxsus aloqa pochta xizmati xarajatlariga	18,0	
		Stellani ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlari, Qurilish mollari hamda jihoz va xo'jalik mollari sotib olish xarajatlariga	122,6	
		Elektr energiya uchun elektron hisoblagich sotib olish (kameralar uchun) xarajatlariga	24,0	
		Zarafshon shahrining 60 yilligi munosabati bilan Zarafshon shahrini kitobini nashr etish xarajati uchun	150,0	
		Shahar hokimligiga yonib turuvchi buyurtma yozuvli harflar yasatish va o'rnatish xarajatlariga	4,5	5,0
		Shahar hokimligiga moddiy texnika bazasini rivojlantirish xarajatlariga	15,0	
2.	Zarafshon shahar obodonlashtirish boshqarmasi	Zarafshon shahar obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi ichki yo'llar va shaharga kirishdagi "Zarafshon" yozuvi ob'ekti atrofini asfaltlash xarajatlariga	100,0	
		Qurilish mollari hamda jihoz va xo'jalik mollari sotib olish xarajatlariga	40,0	
3.	Zarafshon shahar	Shahardan tanlab olingan 5 nafar o'qituvchilarni xorijda malaka		100,0

	maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	oshirish maqsadida xizmat safariga yuborish bilan bog'liq xarajatlarga		
		Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida 6-maktabning issiqlik tizimini ta'mirlash hamda qurilish mollari sotib olish xarajatlariga		70,0
		Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumta'lim maktablarida PQ-393-sonli qarorbo'yicha "Jasorat maktablari"ga tashkil etiladigan mashg'ulot maydonchalari xarajatlariga		30,0
4.	Shahar madaniyat bo'limi	Mustaqillik bayramini o'tkazish bilan bog'liq va shaharining 60 yilligi munosabati bilan (konsert, mushaklar, sahna bezaklar, ledekran, sahna chiroqlari va boshqa tadbirlar uchun) tadbir xarajatlariga		200,0
5.	Zarafshon shahar sport maktabiga	Zarafshon shahar sport maktabiga kerakli sport anjomlari sotib olish xarajatlariga	20,0	
Jami			1449,0	405,0
Xammasi			1854,0	